

UDK:633.174

QORAQALPOG`ISTON SHAROITIUDA PIYOZNI SOCHMA USULDA YETISHTIRISH AFZALIGI VA HOSILDORLIGI O`RGANISH

*D.Hayitboyev¹
Yuldashev Suxrobjon²*

¹Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti,

²Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti 3-kurs talabasi

Annotatsiya; Piyozni ekish usullari va ularning afzaliklari hamda ularni yangi usularda hosildorligini ko`paytirish usullari.Urug` sarfi va ularni ko`chatlari orqali ekish samaradorliglari.

Kalit so`zlar. *Piyozni ekish usular, ekish muddatlari, ulardan samarali foydalanish, oziq-ovqat xafsizliklarni taminlash hamda tuproq sutrukturasini yaxshilash.*

Piyozda bu usulda tadqiqot qilganimizda quyidagi navlardan foydalanildi Kaba-132, Oq dur, Karatol, Lione va Volf navlari ekildi. Bu navlar 16-martda ekildi. Unuvchanlik jihatdan sochma usulda ekilgan piyoz ko`chatxonada ekilgan piyozdan ancha kech unib chiqdi.

Piyoz ekilgan maydonlarda begona o`tlarga qarshi u ekilgunga qadar gektariga tuproqning 6-8 sm chuqurligida 1,0-1,5 kg, piyoz ekilgach esa 8 kg treflan yoki 12 kg daktal ta'sir etuvchi modda sifatida gerbitsdlar sepilishi lozim.

Dastlabki unib chiqqan piyoz navi Karatol bo`ldi.Undan keyin esa Oqdur, Kaba-132,Lione va Volf navlari unib chiqq boshlaydi.Piyozlarning to`liq chiqish muddati 1-aprel . Bunda unib chiqishning ancha sekin bo`lganligi sababi ob-havo bilan bo`g`liq bo`ldi. Chunki tuproq harorati 10-14Cdan oshmasligi bunga asosiy sabablardab biridir. 3.2.3-jadval

Sochma usulda yetishtirilgan piyozning morfobiologik rivojlanishi

Navlar	Piyozning unib chiqishi(kun)	Piyozning to`liq unib chiqishi(kun)	Piyoz o`rtacha bo`yi(sm)	Piyoz barg soni(dona)	1dona piyoz og`irligi(gr)
Kaba-132 (st)	12	16	58,7	8,7	130
Karatol	12	17	57,3	8,6	128
Oqdur	13	17	56,6	8,4	126
Lione F ₁	14	19	48,5	7,6	90
Volf F ₁	13	20	49	7,2	92

Barg, odatda, urug' ungandan 12-15 kun keyin, urug'pallabargning maxsus teshikchasidan tashqariga chiqadi. Birinchisidan keyin 8-10 kun o'tgach, uning ichidan ikkinchi chinbarg o'sib chiqadi. Uchinchi va undan keyingi barglar har 4-6 kunda, avvalgi bargning ichidan o'sib chiqa boshlaydi. Natijada soxta poya hosil bo'ladi, bular bir-birining ichiga o'ralgan naysimon barg qinlaridan maysalar hosil qiladi. Piyoz maysalari dastlab asta sekinlik bilan o'sib rivojlanadi. O'simliklarning chinbarg hosil bo'lishi esa 23-aprel sanasiga to'g'ri keldi.

14-aprel sanasida maysalarda bo'yi o'lchab chiqqanda Karatol piyozning bo'yi 28 smni, Oq dur piyozning bo'yi 26 sm, Kaba-132 25 sm, Lione 23sm va Volf navi esa 22 smni tashkil qildi. Shundan ikki haftadan keyin yana o'sish va rivojlanish jihatdan bo'yiga va bosh boylash darajasini bilish uchun o'lchov o'tkazildi. Unda Karatol 58,7sm, Oq dur 56sm, Kaba-132 54sm, Lione 52sm, Volf navi esa 51smni tashkil qildi. Piyozning pishish vaqtiga kelsak ertapishar Karatol erta pishib yetildi, 16-avgust, qolgan navlar barchasi teng pishib 21-avgustpishib yetildi.

Lekin hosildarligi jihatdan bir-biridan farq qildi. Sochma usulda ekiladigan piyozlar afzalik tarafi mehnat sarfi birmuncha kam biroq ekish maydoni ko'p bo'lishini talab qiladi.

Sochma usularda ekilgan piyozlar juda zich bo'ladi natijada piyozlarning boshchalari kichik bo'lib qoladi va hosil sifatida ta'sir qiladi. Piyozni erta sochma usulda eksa bo'ladi, lekin piyoz o'simligini kech ekilgan vaqtida begona o'tlar ko'payib ketadi natijada hosildorlik pasayadi va qo'shimcha mehnat sarfiga ehtiyoj sezadi. Piyozning o'sib rivojlanishi oziq maydoniga bo'g'liq bo'ladi, natija yani piyozning boshchasi katta yoki kichikligi shunga bog'liq bo'ladi. .

Piyoz maysalari dastlab juda sekin o'sadi va o'simlik shakllanib olish cho'ziladi. Natijada ularni begona o'tlar bosib ketadi, bu esa maysalarga halaqit beradi, bundan tashqari ular bahor faslida yo'g'ingarchilik ko'p bo'lganligi qatqaloqdan, namning etishmasligi va boshqa noqulay sharoitlardan qattiq qiynaladi. Shu sababli piyoz o'suv davrining boshida yaxshi parvarish qilishni talab etadi.

Assimilyatsiya apparati (barglari) chiqqandan keyin piyozbosh shakllana boshlaydi. Barglarda sintezlanadigan uglevodlar o'simlikning quyi qismiga tushib, u erda zaxira bo'lib to'planadi. Bunda bargning asosi yo'g'onlashib, etli qobiqqa aylanadi va piyozbosh hosil qiladi. Shu bilan bir vaqtda etli tutash qobiq ham hosil bo'ladi. Bu qobiqning assimilyatsiya qiluvchi plastinkasi bo'lmaydi. U oziq moddalar to'planishi uchun xizmat qiladi. O'zbekistonda ekiladigan piyozlarning vegetatsiya davri urug'dan ekilganida 130 kundan 160-180 kungacha davom etadi. ko'char orqali ekilgan piyozda o'tkazilgandan to urug' pishguncha 110-130 kun o'tadi.

Piyozboshning shakllanishi uchun eng qulay harorat 20-30 Cdan bundan past bo'lsa, piyoz sust o'sadi; harorat yuqori bo'lsa, tarkibidagi plastik moddalarning nafas olishga sarflanishi tufayli piyozbosh mayda bo'lib qoladi.

Shimoliy nav piyozlarning o'sishi uchun 15-18 soatlik uzun kun eng qulay hisoblanadi. Uzun kun sharoitida piyozbosh tez shakllanadi, barvaqt yetiladi va ancha yirik bo'ladi. Qisqa kunda esa piyozboshlarning shakllanishi va yetilishi kechikadi. Janubiy piyoz navlari uchun aksincha, qisqa kun kerak. Bu piyozlar shimolda ekilsa, uzun kun sharoitida pishmay qoladi.

O'simlik hayotining turli davrlarida yorug'lik intensivligiga talabi bir xilda

bo'lmaydi. Ular o'suv davri boshlarida, barg apparati o'sib chiqqanda unchalik katta bo'lmaydi, lekin piyozboshlar shakllanayotgan vaqtda birdan kattalashadi. Shuning uchun barra piyoz o'stirayotganda o'simlikni bir oz soyalatish juda muhim. O'simlik yirik boshpiyoz uchun o'stirilganda soyalatish piyozboshlar shakllanishini kechiktiradi va hosilni kamaytiradi.

Piyozning shakllanishi va yetilishi oziq moddalarga va o'simlikning suv bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Urug' qancha qalin ekilsa, o'simlik oziq moddalar va suv bilan qanchalik kam ta'minlansa, piyozbosh shunchalik tez shakllanadi va mayda bo'ladi. Agar har gektar erda 200-400 ming o'simlik o'stirilsa va oziqlanish sharoiti yaxshi bo'lsa, yirik sifatli oziq-ovqatga ishlatishga yaroqli piyozbosh etiladi.

Piyoz shakllanayotganda piyoz tubidagi etli pardalar orasida boshlang'ich murtak, bulardan esa kelasi yili gulpoyalar yoki mayda yosh piyozboshlar hosil bo'ladi.

Kurtakdan yangi piyoz hosil bo'lishi yoki gulpoya chiqishi turli sabablarga, birinchi navbatda piyozboshning saqlanish haroratiga bog'liq.

Past haroratda 2-10°C uzoq saqlansa, piyozdagi kurtaklardan gulpoyalar hosil bo'ladi. Bundan yuqori 18-20°C yoki, aksincha 0 dan past haroratda saqlanganda kurtakdan yangi, yosh piyozbosh hosil bo'ladi. Piyozning ana shu biologik xususiyatini nazarda tutib, piyozbosh yuqori 18-20°C dan ortiq yoki aksincha, past 0°C dan past haroratda saqlanadi. Shunda piyoz erkaklab ketishi kuzatilmaydi urug'lik uchun mo'ljallangan piyozbosh esa, 2 dan 10°C gacha haroratda saqlash tavsiya qilinadi.

Urug'lik piyozlarning erkaklab ketishiga ekish muddati, piyozboshlarni yerga, o'tqazgandan keyingi harorat, tuproq namligi ham ta'sir qiladi. Bahor yaxshi, issiq kelgandava yerda nam kam bo'lganda piyozning erkaklab, gulpoya chiqarmaydigan, "o'jarlik" xususiyati paydo bo'lishiga olib keladi. Aksincha, piyoz erta ekilsa va bahorgi salqin havo cho'zilsa, gulpoya chiqarish kuchayadi hamda yaxshi urug' hosili olinadi.

Piyoz gullashi 3-4 kun davom etadi. Janubda to'p gulning gullashi 15-20 kun, o'rta mintaqada esa 48 kungacha davom etadi.

Keyingi tajribanni Qoraqolpog'istonning janubiy qismi ya'ni Amudaryo tumani Dilnoza fermer xo'jaligiga piyozni ekish boyicha dala tajriba o'tkazildi va 1,5 sotix maydonda piyozni ko'chatlab 4 sotix maydonga piyozni sochma usulda ekdim.

Bu yerga ham 5ta navli piyozlar ustida tajriba o'tkazdim. Daslab sochma usulda 8-mart sanasida ekildi. Kaba-132 navini standart qilib oldim qolagan Karatol,

Oq dur, Lione va Volf navlari ekildi. Bu yerda piyozning unuvchanligi 6-7 kunda daslab unib chiqa boshladi. Bu yerda daslabki unib chiqqan nav Oqdur navi 5- kunda unib chiqdi.

Keyingisi Karatol navi bo'ldi 6-kun, Kaba-132 esa 7-kunda unib chiqdi, qolgan Lione va Volf navlari esa 8-9 kunda unib chiqdi. Chin barg chiqarishi esa unib chiqqandan keyin 12-kunidan keyin paydo bo'la bo'shladi. Amudaryo tuproq-iqlim sharoiti yaxshi bo'lganligi sababli piyoz o'simliklari Nukus shaharidagi tajriba maydonga qaraganda ancha tez rivojlanish yuz berdi. Masalan; chin barg chiqargandan keyin ikki haftadan vaqt o'tgandan keyin piyozning bo'yini o'lchandi va natijalar quydagicha Kaba-132 bo'yi 28 sm, Karatol navining bo'yi 31 sm, Oqdur navining bo'yi 30 sm, Lione navining bo'yi 27 sm, Volf navi bo'yi esa 27 smni tashkil etdi. Piyoz o'simliklarga tez-tezdan suvg'orib turildi chunki bilamiz piyoz o'simligi suvni

juda kam bug`latadi lekin suvga juda talabchan o`simlik. Sochma usulda ekilgan piyozlarning namligi yuqari bo`lganligi sababli begona o`t chiqib boshladi. `Birinch marta begana o`tini olib tashlash vaqtida qalin bo`lib ketgan piyozlar yaganalab chiqdim va mineral o`g`it berildi.

Piyoz o`simliklari ekilgandan so`ng 65-70 kudan boshlab bosh baylashni boshladi hamda asta sekin gul chiqarishi boshladi. Gulpayalarni barchasi olib tashlash kerak bo`ladi sababi bor o`zidagi oziq moddani taqsimlay olmay qoladi natijada piyozboshchalari yaxshi rivojlanmay qoladi. Shuning uchun olib tashlanadi. Bu piyozlarning pishi vaqti 5-iyul kuni barchasini yig`ib oldim. Hosildorlik juda yashi bo`ldi 1ta donna piyoz o`lchaganda Karatol navi 125 gr, Kaba-132 navi 120 gr, Oqdur navi 117 gr, Lione navi 113 gr, Volf navi esa 111 gr keldi. Umumiy hosildorlik 250 sentenerdan kam bo`lmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A. ‘Himoyalangan yer sabzavotchiligi’ T-2018
2. Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A. ‘Sabzavotchilik’ Toshkent-2008
3. G.T.Erejepova, A.S.Abdigapbarov, N.N. Ismoilova ‘Sabzavotchilik’N., ‘Bilim’2024. O`quv qo`lanma.